

**XX ASR BOSHLARIDA XORAZMDA KECHGAN IJTIMOYIY-IQTISODIY
JARAYONLARNI MANBA VA TADQIQOTLARDA YORITIB BERILISHI.**

Mukhamedov Sherzod

Alfraganus University Xalqaro munosabatlar va tarix kafedrası

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm XX asr boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar haqida ma'lumot beruvchi manbalar, ularni o'rganilish darajasi ko'rib chiqiladi. XX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyat, Xorazm Xalq Sho'ro jumhuriyati faoliyati, davlat arboblari olib borgan ishlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar tahlil qilinadi. Xorazm 1920-yillarni tadqiqotiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, monografiylarda keltirilgan ma'lumotlarni mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilarniki bilan qiyosiy solishtiriladi.*

Kalit so'zlar: *Sho'rolar, yosh xivaliklar, Xiva xonligi, ijtimoiy, iqtisodiy, manba, maktab, madrasa, madaniy.*

**SOCIAL AND ECONOMIC PROCESSES IN KHOREZM AT THE BEGINNING OF
THE 20TH CENTURY COVERED IN SOURCES AND STUDIES.**

Mukhamedov Sherzod

Alfraganus University Department of International relations and history

Abstract: *In this article, the sources of information about socio-economic processes of Khorezm at the beginning of the 20th century and the degree of their study are considered. Valuable information about the socio-economic and political situation of the beginning of the 20th century, the activities of the Khorezm People's Soviet Republic, and the work of statesmen are analyzed. Scientific articles and monographs devoted to the study of Khorezm in the 1920s compare the information with that of local and foreign researchers.*

Key words: *Sovets, YoungKhivans, Khanate of Khiva, social, economic, resource, school, madrasa, cultural.*

KIRISH

Xorazm Xalq Sho'rolar Jumhuriyati tarixini, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar haqida ma'lumot beruvchi, o'z davrida yozilgan kitob, maqola va boshq turli arxiv hujjarlarda ko'rishimiz mumkin. Bizgacha yetib kelgan hujjat va manbalarda XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarni tadqiq etishda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, XX asr 20-yillardagi Xorazmda kechgan tarixiy voqea, hodiaslarni batafsil ma'lumot beruvchi maqolalar, monografiya, davlat arboblari o'tasida yozishmalarni tahlil etish orqali o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tiklashimiz mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Xorazm Xalq Sho'rolar Jumhuriyati tarixini Xususan, R. Jumaniyozov o'zining Xorazm tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotida XXSHJ tarixining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tomonlariga e'tibor bergani ko'zga tashlanadi[1]. Biroq, uning ushbu ishida sovet davrida yozilgan tadqiqotlardan katta farq qilmay, mafkura va yondashuviga ko'ra eski fikrlar davom ettirilgani seziladi.

XX asr boshlaridagi tarixshunosligida Xorazm hukumati vakillari faoliyati hamda o'sha davrda mamlakatda sodir bo'layotgan voqea, hodisalarni ijtimoiy va madaniy jarayonlarni tadqiq etish orqali XX asr 20-yillardagi vaziyatga oydinlik kiritish mumkin bo'ladi. Misol uchun O.Sultonovning P. Yusupov faoliyatini yoritgan maqolasi[2] bu toifadagi ishlarning debochasi edi. Shu mavzuda S. Abdullayev "Xorazmlik birinchi ministr (Ollobergan Rahmatullayev)" nomli ilmiy maqola ilk izlanishlardan biri bo'ldi. P. Yusupov faoliyati misolida XXSHJdagi jarayonlar yoritilgan yana bir maqola A. Abdurasulov va R. Hasan tomonidan 1997 yilda "Turkiston" gazetasida bosilib chiqdi[3]. Bular qatoriga XXSHJ siyosiy-iqtisodiy masalalarga doir ma'lumotlarni N. Rahimovning ilmiy maqolada batafsil ochib berilgan[4]. Ilmiy tadqiqotlar orasida alohida o'rin tutadigan ma'rifatparvar shaxslardan biri, Xorazmning Moskvadagi elchisi vazifasida ishlagan Bekjon Rahmonovning diplomatik faoliyatini yorituvchi maqolani ham kiritish mumkin. O. Sobirovning Ismoilxo'ja faoliyatiga bag'ishlangan maqolasida ham Xorazm taraqqiyparvarlari faoliyatiga yangicha nigoh bilan yondashildi[5]. Bu mavzudagi tadqiqotlar o'zbek tilida yozilgan bo'lib, ko'proq mamlakat aholisining o'zbek tilli qatlamiga qaratilgan bo'lsa, B. Bobojonovning Islomxo'ja va uning o'g'illarining kimlar tomonidan o'ldirilgani masalasida rus tilida chop etilgan qator maqolalari mavzu doirasining yanada kengayishiga xizmat qildi. Bunday tadqiqotlar sirasiga XXSHJ hukumati vakillaridan X. Devonov va P.Yusupov faoliyatiga bag'ishlangan maqolalarni ham kiritish mumkin[6].

XXSHJ tarixi bilan bog'liq izlanishlar qatoriga M. Yoqub tomonidan e'lon qilingan ommabop maqola respublikada birinchilardan bo'lib xorijga bosh olib ketgan xorazmlik ma'rifatparvarlar masalasiga bag'ishlandi[7].

XXSHJ hukumati tomonidan iqtisodiy sohada amalga oshirilgan ishlardan biri – bu Xiva xonligida moliya-pul tizimi bo'lib, bu masalada ham bir qator maqolalar e'lon qilindi va ularda "Yosh xivaliklar"ning bu sohadagi islohotlariga to'xtalib o'tildi. Jumladan, M. Matkarimov va G'.Otajonov tomonidan bu masalaga bag'ishlangan bir qator maqolalar nashr yuzini ko'rdi. Shu o'rinda M. Matkarimov tomonidan Polvonniyoz Yusupov qalamiga mansub 1926 yilda yozilgan "Yosh xivaliklar tarixi (xotiralar)" nomli memuar asarining eski o'zbek yozuvidan kirillchaga o'girilib, 2000 yilda chop etilgani va ushbu nashr[8] XXSHJ tarixini o'rganuvchilar uchun muhim manba vazifasini o'tay boshlaganini aytib o'tish zarur. Tadqiqotchi ushbu nashrga kattagina so'zboshi yozgan bo'lib, unda XXSHJda kechgan tarixiy voqeliklarga ancha keng to'xtalib o'tilgan.

NATIJALAR

Xiva xonligining tugatilishi va Xorazmda yangi siyosiy tuzumning o'rnatilishida Qizil armiya qo'shinlari, Turkiston kommunistlari, "Yosh xivaliklar" partiyasi va ular orqali umumiy kurashga qo'shilgan turkman urug' boshliqlarining harbiy otryadlari oraisda tuzilgan ittifoq muhim rol o'ynadi. Bu ittifoqning asosiy tashkilotchilari "Yosh xivaliklar" partiyasi edi;

1920 yil aprel oyida tuzilgan, asosan "Yosh xivaliklar"dan iborat bo'lgan XXSHJning birinchi hukumati qizil askarlar tomonidan 1921 yil mart oyidayoq tugatildi. 1924 yil oxirlariga qadar Xorazmda turgan RSFSRning vakolatli vakillari tazyiqi bilan XXSHJda hukumat rahbarlari o'n martadan ortiq o'zgartirildi.

XXSHJ tarixini o'rganuvchi mutaxassislar, ayniqsa, mahalliy tadqiqotchilarning safi ancha kengaydi. O'lkamizning yangi tarixi bo'yicha o'nlab ixtisos egalari yetishib chiqib, yaqin o'tmishdagi voqeliklarni haqqoniy va ob'yektiv yoritish imkoniyatidan unumli foydalandilar. XXSHJ tarixiga u yoki bu darajada aloqador o'nlab nomzodlik va doktorlik ishlarining yoqlanishi, bir qator ilmiy monografiya va risolalarning nashr yuzini ko'rishi bu davrda bajarilgan amaliy ishlar sirasiga kiradi. Ushbu tadqiqotlarda XXSHJ tarixini nafaqat siyosiy jihatdan, balki uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy masalalarini sinchiklab o'rganish yo'lga qo'yilgani sezilib turadi. Shu bilan birga, XXSHJ tarixini o'rganish jarayonida ayrim hollarda biryoqlamalikka yo'l qo'yilgani, sobiq sovet davri tarixshunosligiga baho berilayotganda ko'proq ularning salbiy tomonlariga urg'u berilib, qo'lga kiritilgan yutuqlari e'tirof etilmagani kuzatiladi. Aslida, sovet davrida yaratilgan tadqiqotlardagi sinfiy yondashuv va voqeliklarga "kommunistlarcha qarash"ning o'sha davr vaziyatidan kelib chiqib amalga oshirilganini nazarda tutib yondashilsa va ulardan birlamchi manbalar sifatida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

XXSHJning tashkil etilishida qatnashgan siyosiy arboblarning faoliyatini yoritishda ulardan qaysi biriga nisbatan ko'proq urg'u berilgani, milliy manfaatlarga qanchalik xizmat qilgan yoki aksincha yo'l tutgan, sovetlar bilan til biriktirib, milliy masalada katta kamchiliklarga yo'l qo'ygan shaxslarni ham ajratib olish, masalaga shu nuqtai nazardan yondashish kerak bo'ladi.

XULOSA

Sovet davri tadqiqotlaridan farqli ravishda xorijlik izlanuvchilar XXSHJ tarixiga nisbatan xolis yondashgani, tadqiqot usullarining nisbatan mukammalligi, voqeliklarga o'z davri shart-sharoiti va muhitidan kelib chiqib baho bergani, shaxslarni mutlaq ravishda "yaxshi" va "yomon"ga ajratmagani diqqatga sazovordir. Chet ellik tadqiqotchilarning ko'pchiligi o'zlarining yashash hududi, ijtimoiy-madaniy muhitidan kelib chiqib masalaga turlicha yondashgan bo'lib, masalaga "antikommunistik ruh"da yoritishgan. Shunga qaramay, ayrim o'rinlarda XXSHJning tuzilishida rus kommunistlarining roli bo'rttirib ko'rsatilib, mahalliy xalq vakillarining xizmati yetarlicha e'tirof etilmagani, vohadagi milliy masalalarga nisbatan talqinda turlicha yondashuv usturvorlik qilgani ko'zga tashlanadi. Ayrim tadqiqotlarda esa buning teskarisi bo'lgani sezilib, buning misollarini G'arb va Turkiyada amalga oshirilgan

tadqiqotlarda ko'rish mumkin. Shuningdek, o'sha davrdagi ma'rifatparvarlik harakatlari bilan ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz berayotgan buhronlardan foydalanib qolishga uringan xatti-harakatlarni bir-biridan ajratmagan holda yondashuvlar bo'lgan, bu jarayonlarni yoritgan turkistonlik muhojirlar bilan G'arb tarixshunoslarining fikrlari ko'p hollarda o'zaro mos kelmasligini ham aytib o'tish zarur.

XXSHJ tarixi bo'yicha olib borilgan va borilayotgan izlanishlarning mazmun va mohiyati bo'yicha shunday to'xtamga kelish mumkin:

Birinchidan, yuqorida ham aytib o'tilganidek, XXSHJ tarixshunosligi mutlaqo yangi bir bosqichga qadam qo'ydi. Bu davrga kelib ushbu siyosiy tuzilma tarixini o'rganuvchi o'zbekistonlik tarixshunoslar jamoasi shakllandi;

Ikkinchidan, tarixshunoslikda yangicha usullardan foydalanishi, voqeliklarga o'sha davr muhitini hisobga olgan holda baho berish, dunyo tarixshunosligida qo'lga kiritilayotgan ilmiy yutuqlardan foydalanish holatlari tobora kuchayotgani ko'zga tashlanadi;

Uchinchidan, XXSHJ tarixshunosligida muayyan bir kichik mavzusini qamrab olib, umumiy xulosalar chiqarish, qonuniyatlarni topish kabi usullarga murojaat qilish, manbalar bilan ishlash tamoyillari ustuvorlik qilayotgani diqqatga sazovordir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI/REFERENCE:

1. Djumaniyazov R. Xorezm. Kratkiy ocherk politicheskoy i sosialnogo-ekonomicheskoy istorii. 1920-1990 gg. – Urgench, Izd-vo, «Fan», 1991.
2. Sul'tonov O. Polvonniyoz Yusupov. Tarixga nazar. [Xorazm vohasida bo'lib o'tgan inqilobiy voqealarda juda katta rol o'ynagan "yosh xivaliklar" partiyasi va uning faollaridan Polvonniyoz Yusupov] // Xorazm haqiqati. 1991, 21 sentyabr.
3. Рахимов Н. Ш. Административная и политическая деятельность хорезмской народной советской республики. // Qazaqtaný, 2019, 30.
4. Abdullayev S. Xorazmlik birinchi ministr (Ollobergan Rahmatullayev) // Xorazm Haqiqati. 1992, 13 avgust.
5. Sobirov O. Ismoilxo'janing o'limi // Xiva. – 1993. -№2-3. – B. 30.
6. Maxmudov M. Pravda o Xudoybergene Divanove // Xorezmskaya pravda. 1994, 11, 30 avgusta; Raximov R. Xorazmskiy istorik Palvanniyaz Yusupov i yego memuari // *Общественные науки в Узбекистане*. 1996. №1-2-3. – S. 79-81.
7. Yoqub M. Xorijdagi xorazmliklar // Qalb ko'zi. 1992, 15 oktyabr.
8. Polvonniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi (xotiralar). Mas'ul muharrir va so'z boshi muallifi M. Matniyozov. – Urganch: "Xorazm" nashriyoti, 2000. – 488 b.